

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA SIFATLI TA'LIM BERISHDA
INTERFAOL METODLAR HAMDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Hamidjon Pozilov Ikromjon o'g'li

Qo'qon unversiteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Parpiyev Odil Olimovich

Qo'qon universiteti katta o'qituvchisi

«Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa,
ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi».

Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga samarali ta'lim-tarbiya berishda didaktik, interfaol o'yinlarning judayam muhim jihatlari va zaruriyati haqida batafsil ma'lumot berilgan. Qanday o'yinlar o'quvchining har tomonlama rivojlanishida yordam berishi haqida keng yoritilgan. O'quvchi diqqatini jalb qilish, zeriktirmaslik, qolaversa, mazmunli, maqsadli, samarali dars soatini tashkillash uchun qanday metod va uslublardan foydalanish zarurligi haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan. Bu borada ota-onalarga ham kerakli, tadqiqotlarga tayangan holda tavsiyalar aytib o'tilib, «Oila va maktab ta'lim-tarbiya tizimi»ni yaratish g'oyalari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: interfaol ta'lim, didaktik o'yinlar, rivojlantiruvchi ta'lim, D.B.Elkonin, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Y.A.Komenskiy, A.S.Makarenko, intellektual-fonetik o'yinlar, kognitiv rivojlanish, ta'lim metodikasi, harakatli o'yinlar, boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar.

Annotation: The article provides detailed information on the importance of didactic, interactive games in the effective education of primary school pupils. There is a lot of talk about what games can help a pupil develop in all areas. It provides detailed information on what methods and techniques should be used to engage pupils, not to bore them, and to organize meaningful, purposeful, and effective lessons. Recommendations based on research have been made for parents, and the idea of creating a «family and school education system» has been put forward.

Аннотация: В статье представлена подробная информация о значении дидактических, интерактивных игр в эффективном обучении младших школьников. Существует много информации о том, какие игры могут помочь школьникам во всех аспектах их развития. Дается подробная информация о том, какие методы и приемы следует использовать, чтобы заинтересовать учащихся, не утомлять их и организовать содержательные, целеустремленные и эффективные занятия. На основе исследований даны рекомендации для родителей, выдвинута идея создания «системы семейно-школьного воспитания».

¹ «Xalq so'zi» 31.10.2020 №230 (7732) soni 1-2 sahifalar

KIRISH

Bugungi Yangi O‘zbekiston hayotini ta’lim sifatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha katta islohotlar bo‘layotgan Umummilliy Uyg‘onish davri – III Renessans uchun poydevor deb atasak, haq gap bo‘ladi, nazarimda. Chunki so‘nggi yillarda eng ko‘p o‘zgarishlar ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgani hech birimizga sir emas. Jumladan, Xalq ta’limi sohasida misli ko‘rilmagan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim-tarbiya maskanlari yangi qiyofada aks etishi bilan bir qatorda, eng zamonaviy o‘quv jihozlari, elektron texnologiyalar, yuqori sifatli internet tarmoqlari o‘rnatilib, hattoki sinfdagi darslar va ularning mazmun mohiyati tubdan yangilanmoqda. Tom ma’noda o‘quvchi, bilim oluvchi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib, yangicha uslub va metodikalar ishlab chiqilmoqda.

Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Fitrat: «Bu dunyo kurash maydonidir. Sog‘lom tan, o‘tkir aql va yaxshi axloq bu maydon qurolidir», – deb aytganlarida ming karra haq edilar².

Ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zaminida yagona maqsad – kelajagimiz vorisi bo‘lmish yosh avlodning har tomonlama komil inson bo‘lib voyaga yetishi, aniqrog‘i, yuqori bilim samaradorligiga erishishdir. Shu o‘rinda, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, 2018-yil 5-sentabrdagi «Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5538-sonli Farmoniga ko‘ra Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilganini aytib o‘tish lozim. Shunday ekan, ta’lim tizimida tabiiy yo‘nalishdagi ta’lim jarayonini takomillashtirish va uning sifat samaradorligini ta’minlash asosiy vazifalardan biridir³.

Birdan-bir yagona maqsad jismonan barkamol, har tomonlama yetuk, bilimli avlodni tarbiyalamoqdir. Zero, Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak⁴.

2020-yilning 30-oktabr kuni Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisliklarida mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha bo‘lib o‘tgan videosektor yig‘ilishida ta’kidlanganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Uning o‘chog‘i bo‘lmish maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini kompleks rivojlantirish,

² «O‘zbekistonning umidli yoshlari» mavzusidagi 3-son Respublika ilmiy talabalar, magistrilar yosh tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun onlayn konferensiyasi [Toshkent; 2021] 115-b.

³ «O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar. Davriy anjumanlar» mavzusidagi respublika 40-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to‘plami, 31 may 2022 yil. - Toshkent: «Tadqiqot», 2022 / 41-b.

⁴ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch, I.A.Karimov, Toshkent “Ma’naviyat” 2008.

Finlandiya tajribasidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya sohasida eng ilg'or va samarali metodikalardan unumli foydalanish zarurligi aytib o'tildi⁵.

Umuman, ta'lim metodikasi⁶, darsliklari⁷, partadan tortib, binosigacha to'liq qayta ko'rib chiqilishi; ta'limga, muallimga zaruriy shart-sharoitlar yaratilib, erkinliklar berilishi 10-15 yilda butun mamlakat qiyofasini tubdan o'zgartirishga asos bo'ladigan qudratli manba, zero har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog'langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani, qolaversa dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalarini o'rganib, yurtimiz umumta'lim maktablarida joriy qilish muhimligi, ta'lim sohasidagi muammolar, ularni hal etib, ta'lim sifatini oshirishga oid vazifalar muhokama qilingani holda maktablardagi o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini Prezidentimiz o'z nutqlarida yana bir bor ta'kidlashdi.

Men ushbu maqolam orqali ham maktabda, ham oilada boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarning har tomonlama kamol topishi uchun samarali va muhim bo'lgan eng asosiy mashg'ulot - o'yin⁸ haqida, hamda samarali darslarni tashkil qilishda interfaol metodlar⁹, didaktik o'yinlarning¹⁰ ahamiyati haqida to'xtalmoqchiman.

Boshlang'ich ta'lim davri - o'zida 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab olib, ularda savodxonlik, bilim, ko'nikma, malakalar shakllantiriladigan bosqich bo'lib, bu davrda maktabgacha ta'lim yoshi bolalari uchun o'ziga xos bo'lgan o'yin faoliyatining o'rini o'qish faoliyati egallaydi¹¹.

Inson tabiati xilma-xillikka moyildir. Bir xillik barchamizni ham zeriktiradi, ham fikrlashimizni, dunyoqarashimizni sekinlashtirib, to'xtatib qo'yadi. Ayniqsa bugungi globallashuv, texnologik taraqqiyot davrida ta'lim berishda an'anaviy dars usullari bilan uyg'unlikda zamonaviy interfaol metodlar orqali dars o'tishning ahamiyati yuqoriroqdir.

Hozirgi zamon mahoratli¹² pedagogi qanday bo'lishi lozim? - degan savolga ushbu maqolada javob olish mumkin.

Avvalo, bugungi kun pedagogi zamonaviy bilimlar, ilg'or tajribalar hamda pedagogik mahoratni yuqori darajada egallaganligi, pedagogik izlanish vazifasiga mos tadqiqotlar metodlari majmuasini shakllantira olishi, nazariy tadqiqot va amaliy tajriba-sinov ishlarini o'tkazish malakasiga ega bo'lishi, o'qitadigan o'quv fanidan o'quv dasturi, DTS, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar, elektron darsliklarni yarata olishi va amalda qo'llay olishi lozim.

⁵ "Xalq so'zi" 31.10.2020 №230 (7732) soni 1-2 sahifalar.

⁶ Pedagogika. Izohli lug'at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O'.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: "Innovatsiya ziyo" nashriyoti, 2020. – 193-b.

⁷ Pedagogika. Izohli lug'at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O'.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: "Innovatsiya ziyo" nashriyoti, 2020. – 44-b.

⁸ Pedagogika. Izohli lug'at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O'.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: "Innovatsiya ziyo" nashriyoti, 2020. – 249-b.

⁹ Pedagogika. Izohli lug'at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O'.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: "Innovatsiya ziyo" nashriyoti, 2020. – 86-b.

¹⁰ Pedagogika. Izohli lug'at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O'.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: "Innovatsiya ziyo" nashriyoti, 2020. – 249-b.

¹¹ Pedagogika. Izohli lug'at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O'.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: "Innovatsiya ziyo" nashriyoti, 2020. – 40-b.

¹² Pedagogika. Izohli lug'at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O'.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: "Innovatsiya ziyo" nashriyoti, 2020. – 118-b.

Abdurahmon Jomiy o‘z asarlarida pedagog foaliyatiga quyidagicha ta’rif beradilar: «Muallim bilimli, aqlli, adolatli, o‘zida butun yuksak fazilatlarini mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi»¹³.

Rivojlangan davlatlarning ta’lim-tarbiya sohasidagi yutuqlaridan o‘rnak olgan holda milliligimizga, sharqona hayot tarzimizga moslab yangiliklar, jozibadorliklar kiritishimiz bugunimiz va ertamiz uchun judayam muhimdir.

Kerak bo‘lsa, nazariy ma’lumotlarni ham didaktik o‘yinlar orqali interfaol ta’lim¹⁴ berishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi, albatta.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi «Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-289-son¹⁵ qaroriga ko‘ra pedagog kadrlar tayyorlovchi Oliy ta’lim muassasalarini tizimli¹⁶ rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, o‘quv jarayonini takomillashtirish, yangi pedagogik texnologiyalar¹⁷ va o‘qitish metodlarini joriy etish ko‘zda tutilgan.

Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670-y.y.) «Buyuk didaktika» (1657-yil) asarida qayd etishicha, didaktika «faqat ta’limgina emas, balki tarbiyalash ham» sanaladi¹⁸.

A.S.Makarenko pedagog haqida yozar ekan, u shunday degan edi: «U tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishini bilishi lozim, o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har biri harakati tarbiyalasin»¹⁹.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Ta’lim texnologiyasi esa BMTning nufuzli bo‘limi YUNESKO tomonidan ham tan olingan va shunday tarif berilgan: «Ta’lim texnologiyasi ta’lim modellarini optimallashtirish maqsadida inson va texnika resurslari hamda ularning o‘zaro tasirini hisobga olgan holda butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlash tizimidir». Haqiqatan ham, ta’lim texnologiyasi, bu – ta’lim jarayonining yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi²⁰.

Bola diqqati o‘yinga asoslangan dars jarayonidagina to‘liq bir maqsadga yo‘naltiriladi. Qolgan hollarda, deyarli, u tarqoq holda bo‘ladi.

¹³ «O‘zbekistonning umidli yoshlari» mavzusidagi 3-son Respublika ilmiy talabalar, magistrilar yosh tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun onlayn konferensiyasi [Toshkent; 2021] 41-42-b.

¹⁴ Pedagogika. Izohli lug‘at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O‘.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: «Innovatsiya ziyo» nashriyoti, 2020. – 87-b.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022 yildagi PQ-289-sonli qarori / <https://lex.uz/uz/docs/-6079561>.

¹⁶ Pedagogika. Izohli lug‘at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O‘.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: «Innovatsiya ziyo» nashriyoti, 2020. – 214-b.

¹⁷ Pedagogika. Izohli lug‘at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O‘.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: «Innovatsiya ziyo» nashriyoti, 2020. – 163-b.

¹⁸ Pedagogika. Izohli lug‘at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O‘.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: «Innovatsiya ziyo» nashriyoti, 2020. – 49-b.

¹⁹ G. Shodmonova, N. D. Ibragimova R.Hojimuxamedova / «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» (Metodik qo‘llanma) / Toshkent, 2011.

²⁰ «O‘zbekistonning umidli yoshlari» mavzusidagi 3-son Respublika ilmiy talabalar, magistrilar yosh tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun onlayn konferensiyasi [Toshkent; 2021] 25-b.

O'yin har qanday bola hayotining eng asosiy mazmuni, olamni oson anglashi, atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishning eng kerakli va foydali faoliyat hisoblanadi. D.B.Elkoninning fikricha, u shunday faoliyatki, samarali faoliyatning bevosita shart-sharoitlari natijasida insonlar orasida ijtimoiy munosabatlar hosil bo'ladi. Bu bolaning jismoniy, ruhiy, aqliy kamolotga yetishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi²¹.

Bolalar uchun o'yin – ular yashayotgan dunyoni bilish va o'zgartirish tomon yo'l. Harakatli o'yin bolaning ruhiy va jismoniy rivojlanishi uchun muhim vosita hisoblanadi hamda katta tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyatga ega. O'yinlar bolalarga umuminsoniy qadriyatlarni anglashda yordam beradi²².

Pedagogik yondashuvga ko'ra didaktik o'yinlar bilan bir qatorda ularning jismoniy faolliklarini oshirishga xizmat qiluvchi harakatli o'yinlar ham maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshi bolalarining jismoniy, aqliy jihatdan rivojlanishlariga katta yordam beradi²³.

Harakatli o'yinlar har xil yoshdagi bolalar uchun mos keladigan, faoliyatning his-tuyg'ularga boy turi hisoblanadi. O'yinlar jismoniy, axloqiy, irodaviy sifatlarning rivojlanishiga ko'mak beradi.

Harakatli o'yinlarning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, ular tizimlashtirilgan bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlaydi, hayotiy muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi, harakat qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ayni vaqtda harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga barqaror qiziqishni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, kuzatuvchanlikni, tahlil qilish, taqqoslash, ko'rilgan narsani umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bolaning aqliy tarbiyasida harakatli o'yinlarning roli hammaga ma'lum: bolalar qoidalarga rioya qilish va ongli ravishda harakat qilishni o'rganadilar. O'yinlarda ular atrofidagi olamni anglaydilar. O'yin jarayonida xotira faollashadi, tafakkur va tasavvur rivojlanadi. Bolalar o'yinda o'zlarining va o'rtoqlarining harakatlarini tahlil qilishni o'rganadilar.

Qo'shiqlar, she'rlar, sanoq bilan o'tkaziladigan o'yinlar bolalarning so'z boyligini to'ldiradi, nutqini boyitadi, milliy madaniyatga yaqinlashtiradi.²⁴

Mahoratli pedagog Pestalossi kabi ta'limning asosiy vazifasi bolalarning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirishdan iborat; o'quvchining mustaqil o'zlashtirgan bilim va malakalari amaliy qimmatga ega, deb hisoblaydi. Taniqli pedagog boshlang'ich ta'limni shaxsni ma'lumotli qilishdagi eng muhim asos deb biladi. Shu sababli bu davrni tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi.

A.Disterveg fikricha, o'qituvchi boshlang'ich ta'limda ko'rsatmali o'qitish yo'li bilan bolalardagi barcha sezgi a'zolarini o'stirishga alohida e'tibor berishi lozim. A.Disterveg o'qitishning 33 qonuni va qoidasi tarzida bayon qilingan takomillashtirilib boriladigan ta'lim didaktikasini yaratdi. Bu qoidalar orasida: «O'quvchilar tomonidan o'rganilgan bilimlar

²¹ I.V.Grosheva, G.E.Djanpeisova, U.T.Mikailova, M.A.Ismailova, D.A.Kenjabayeva / O'yin orqali ta'lim olish / o'quv qo'llanma / Toshkent, 2020 / 39-b.

²² Ilm-fan va ta'limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to'plami 27- aprel 2020- yil / 525-b.

²³ Pedagogika. Izohli lug'at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O'.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: "Innovatsiya ziyo" nashriyoti, 2020. – 96-b.

²⁴ Ilm-fan va ta'limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to'plami 27- aprel 2020- yil / 525-b.

unutilishining oldini olish», «Fanlar asoslarini o‘rgatishda shoshilmaslik» kabilar muhim ahamiyatga ega. Taniqli pedagog o‘qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga yuksak talablar qo‘yadi²⁵.

Didaktikaga asoslangan ta‘lim-tarbiya jarayonida dars turini to‘g‘ri va muvaffaqiyatli o‘tishi uchun faqat ko‘rgazma qurollardan foydalanib qolmay, o‘yin elementlaridan, dars davomida harakatli daqiqalardan foydalanish darslarning rang-barangligiga xizmat qilib, yaxshi natija beradi.

O‘yin bola organizmining tabiiy ehtiyoji bo‘lib, bola o‘yin davomida psixik jihatdan rivojlanadi. «O‘yin bolalar mehnatidir», – deb bejiz aytilmagan. Psixik jihatdan normal rivojlanayotgan bolalarning hammasi, albatta o‘yin faoliyati bilan shug‘ullanadi. O‘yin faoliyati bolalar uchun dunyoni bilish qurolidir. Shuning uchun bolalar o‘zlarining har kungi turli-tuman o‘yin faoliyatlarida tevarak-atrofidagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini bilibgina qolmay, balki kishilar o‘rtasidagi turli-tuman munosabatlarni ham o‘zlariga singdirib boradilar. Odam yoshlik paytida o‘z tabiatiga ko‘ra, nihoyatda taqlidchan bo‘ladi. Agar biz bolalarning o‘yin faoliyatlariga diqqat bilan nazar solsak, o‘yin faoliyatining kattalar xatti-harakatlari va fe‘l-atvorlariga taqlid qilishdan iborat ekanini ko‘ramiz.

Demak, odam ilk yoshlik chog‘idan boshlab o‘yin faoliyati orqali tevarak-atrofdagi odamlarning insoniy sifat va fazilatlarini (mehnatsevarlik, insonparvarlik, sofdillik, halollik, rostgo‘ylik, rahmdillik naqadar go‘zal axloqiy sifatlardan ekanligini va bu sifatlarning aksi bo‘lmish ishyoqmaslik, yovuzlik, o‘g‘rilik, vijdotsizlik, berahmlik, yolg‘onchilik kabilar judayam yomon illatlar ekanligini) o‘zlariga singdirib boradilar. Keyinchalik bunday sifat va xususiyatlar kundalik hayotda mustahkamlanib odamning shaxsiy sifatlariga aylanib qoladi. Misol uchun ta‘limni ham o‘yin tariqasida olish mumkin. Inson bevosita ta‘lim olayotgan vaqtida ham aqliy mehnat qilish jarayoni kuzatiladi²⁶.

Har qanday pedagogik yangilik zamirida biron-bir g‘oya yotadi. Masalan, bunyodkor o‘qituvchi S.N.Lisenkovaning xilma-xil didaktik topilmalarining tub mohiyatini yangi o‘quv materialini ilgarilama o‘rganish g‘oyasi tashkil qiladi. Bu g‘oya asosida o‘qituvchining bolalar bilan o‘zaro harakati yotadi: sinfda psixologik birlik vaziyatni yaratish; har bir o‘quvchi o‘z shaxsini o‘zi namoyon etishini ta‘minlash; har bir metodik yondashuv uchun o‘ziga xos muloqot yo‘lini tanlash; o‘quvchilar tashabbusini zimdan boshqarib borish. U har bir o‘quvchi qalbiga, ularni tushunib yetish didaktik usullari, tashkiliy shakllari orqali yo‘l topadi. Darsdagi o‘quvchilar faoliyatiga nafaqat o‘qituvchi, balki o‘quvchilar ham rahbarlik qiladi. Avval a‘lochi o‘quvchi, so‘ngra boshqa o‘quvchilar ham o‘qituvchi topshirig‘iga binoan nima ish qilganini aytadi va qolgan o‘quvchilarni ortlaridan ergashtiradilar. Bunday «izohli boshqaruv» o‘quvchi maktab ostonasiga qadam qo‘ygan kundan boshlanishi kerak. «Tayanch signallar» ijodkori deb tanilgan

²⁵ Pedagogika. Izohli lug‘at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O‘.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: «Innovatsiya ziyo» nashriyoti, 2020. – 53-b.

²⁶ «O‘zbekistonning umidli yoshlari» mavzusidagi 3-son Respublika ilmiy talabalar, magistrilar yosh tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun onlayn konferensiyasi [Toshkent; 2021] 108-b.

V.F.Shatalovning darslarida o‘quvchi shaxsini ro‘yobga chiqaruvchi, uning kimligini, nimaga qodirligini tasdiqlovchi didaktik o‘yinlarga keng o‘rin berilgan²⁷.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari harakatchan, o‘yinqaroq, tez zerikuvchan, diqqati tarqoq bo‘lgani bois, ularni turli xil interfaol usullar va didaktik o‘yinlar orqali darslarga, mavzuga qiziqishlarini oshirib, jalb qila olishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday bola faoliyatining asosiy qismi o‘yin hisoblanadi. Ular faqatgina didaktik vosita bo‘lib qolmay, bola hayotining asosiy shakli hamdir. Avvalo, biz o‘yinning nozik tomonlarini egallamasdan, o‘yin faoliyatini boshqarishni o‘rganmasdan turib ko‘zlangan maqsadga to‘liq erisha olmaymiz. Bu davr o‘quvchilari hali yosh bo‘lishgani uchun ularga sodda tilda tushunarli ravon holda bilim berish va darslarda o‘yin elementlaridan ko‘proq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ta‘lim amaliyotida qo‘llaniladigan muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash²⁸ imkoniyatini beradigan amaliy o‘yinlar o‘z-o‘zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko‘p holatlarda «didaktik o‘yinlar» deb yuritiladi²⁹.

Eng avvalo, intellektual-fonetik o‘yinlar orqali nutqini shakllantirish, rivojlantirish zarur. Chunki nutq inson hayotida juda katta rol o‘ynaydi. Rivojlanayotgan nutq avvaliga muomala vositasi sifatida, keyinchalik fikrlarni ifodalash va tafakkur quroli sifatida chiqadi, inson xulq-atvori va faoliyatini boshqaradi³⁰. Tilni o‘rganish o‘quvchilar zehni, aqli, ongi, madaniy darajasini oshiradi va tilni puxta o‘rganmay turib, boshqa fanlarni o‘zlashtirish judayam qiyin. Chunki har bir predmetni ifodalash, bolaga o‘rgatish hamisha so‘zlar vositasida amalga oshadi. O‘yin orqali esa bola qiyinchiliklarni, to‘siqlarni yengishga o‘rganib, faoliyati mukammallashadi, hamda jismonan rivojlanishiga³¹ katta yordam beradi.

Ma‘lumki, hozirgi davrda insonga media-texnologiyalarning ta‘siri kun sayin ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu holat, ayniqsa, kitob o‘qishga nisbatan televizorni qiziqib tomosha qiladigan bolalarga kuchli ta‘sir etmoqda.

O‘quvchi ilgari axborotni darslik, adabiyotlar, dars jarayonida o‘qituvchi ma‘ruzasi va radio hamda televideniye orqali olgan bo‘lsa, endilikda bunga axborot texnologiyalari, Internet tarmog‘i ham qo‘shildi. Ta‘lim tizimini axborotlashtirishda o‘qituvchidan darsni yangi innovatsion va pedagogik texnologiyalar asosida o‘tish talab etiladi.

Interfaol multimediali plakat, o‘yinlar orqali ham mavzu bo‘yicha aniq ma‘lumotni taqdim etish, interfaollikdan foydalanib, o‘quvchilarni faol bilimga jalb qilish mumkin. Aynan shu narsa, didaktik va axborot (multimedia) resurslaridan foydalanish, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi, hamda individual ta‘limning mohiyat motivatsiyasi oshadi³².

²⁷ G.Husanova / Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi fanidan ma‘ruza matnlari / Namangan, 2010.

²⁸ Pedagogika. Izohli lug‘at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O‘.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: “Innovatsiya ziyo” nashriyoti, 2020. – 250-b.

²⁹ Pedagogika. Izohli lug‘at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O‘.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: “Innovatsiya ziyo” nashriyoti, 2020. – 16-b.

³⁰ I.V.Grosheva, G.E.Djanpeisova, U.T.Mikailova, M.A.Ismailova, D.A.Kenjabayeva / O‘yin orqali ta‘lim olish / o‘quv qo‘llanma / Toshkent, 2020 / 16-b.

³¹ Pedagogika. Izohli lug‘at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O‘.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: “Innovatsiya ziyo” nashriyoti, 2020. – 174-b.

³² Toshkent Davlat Pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali / 2020, 10-son, 257-b

Umuman olganda o‘yin ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, uni istisnosiz jamoa hayotining barcha jabhalarida, turli jarayonlarda mavjudligining o‘ziga xos shakli deb hisoblash mumkin. Bola bu – dunyoning mo‘jizasi. Insoniyat uchun Alloh tomonidan berilgan eng ulug‘ ne‘mat. Uning hayoti ayniqsa bolalik davri qayta takrorlanmas va juda beg‘ubor davr. Bolalarning asosiy bolalik davri maktabgacha yoshni tashkil qilsada, lekin maktab davrining dastlabki 4 yili bolalikdan o‘spirinlik sari boshlangan ilk murakkab fiziologik, biologik, psixologik o‘tish davri hisoblanadi. Bu davrning o‘ziga xos jihati shundaki, bola ma‘lum tartib-qoidalar, haq-huquqlar va erkinliklarini anglaydigan, jamoaviy shakllanadigan, shaxs sifatida muloqotga kirishadigan ijtimoiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tadi. Maktabgacha bo‘lgan davrda bola rivojlanishning boshlang‘ich bosqichidan o‘tgan bo‘lsa, ilk maktab davrida butun umri davomida umumiy kerak bo‘ladigan asosiy bilimlar, ko‘nikma va malakalarning dastlabki tushunchalarini egallaydi. Aynan shu davr bolaning yaqin va uzoq kelajagiga muhim ta‘sir ko‘rsatadi. Bu davrda bola turli sohalaridagi bilimlardan umumiy tushunchaga ega bo‘ladi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyati tabiiy hodisa deb qaralib, nima uchundir maktabning ilk kunlaridan boshlab ularni qat‘iy tartib-intizomga solishga, jiddiy ravishda ulardan qoidalarga amal qilishlarini talab qila boshlaymiz. Nazarimda, bu unchalik to‘g‘ri yo‘l emas.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ham har bir fanning xususiyatidan kelib chiqib 45 daqiqalik darsning kamida 15-20 daqiqasini interfaol usullar bilan didaktik o‘yinlar orqali olib borish samarali bo‘ladi. O‘yin faoliyatlarida kognitiv rivojlanish,³³ ruhiy ko‘tarinkilik, doimiy va tez-tez harakatli o‘yinlar fiziologik rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va buning natijasida sermazmun bola hayotining jozibadorligi hamda xilma-xilligini aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev «Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz», - deb ta‘kidlaydi³⁴.

Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama – qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya‘ni o‘yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflar uchun didaktik o‘yinlar bolalarni o‘qitishning asosiy shakli hisoblanadi. Unda barcha strukturaviy elementlar, bolalarning o‘yindagi faoliyati uchun xarakterli bo‘lgan: maqsad, jamlanma, o‘yin faoliyati, qoida, natija mujassamdir. Qolaversa, o‘yin shartidagi topshiriqlar uning ta‘limiy xarakterini, kuchli aqliy faoliyatga yo‘naltirilganini tasdiqlaydi. Uning asosiy ahamiyati – bolaning fikri va nutqida mustaqillik va faollikni hosil qiladi³⁵.

³³ H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov / Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / Toshkent «Iqtisod-moliya» 2009, 228-b.

Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova / Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya / «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti» Toshkent-2018, 161-226-b.

³⁴ «O‘zbekistonning umidli yoshlari» mavzusidagi 3-son Respublika ilmiy talabalar, magistrlar yosh tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun onlayn konferensiyasi [Toshkent; 2021] 114-b.

³⁵ I.V.Grosheva, G.E.Djanpeisova, U.T.Mikhailova, M.A.Ismailova, D.A.Kenjabayeva / O‘yin orqali ta‘lim olish / o‘quv qo‘llanma / Toshkent, 2020 / 43-b.

METODLAR

Maktabda pedagog avvalo o‘quvchilarning pisixik holatini tahlil qilishi kerak, asab tizimi (temperament)³⁶ tug‘ma xususiyatlari e‘tiborga olingan holda ta‘lim metodlarini qo‘llash tavsiya etiladi. Bolalarni qaysi tip qaysi temperamentga tushishlarini aniqlab, undan so‘ng ularga nisbatan metod, usullar qo‘llash maqsadga muvofiqdir³⁷.

Interfaol ta‘lim deb (lot. “internus» – ichki, o‘zaro), o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta‘limga aytiladi³⁸.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilar hamda pedagog o‘rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish ta‘lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o‘zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlarga interfaol metodlar deyiladi. Bu turdagi metodlar interfaol ta‘limning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Hozirgi kunda interfaol metodlarning 600 dan ortiq turi mavjud bo‘lib, o‘quv materialining xarakteri, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta‘lim jarayonida ularning har biridan samarali foydalanish mumkin³⁹.

Zamonaviy sharoitda ta‘lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li – mashg‘ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish sanaladi. Manbalarni o‘rganish ta‘lim tizimida interfaol metodlar ilk bor XX asrning 20-yillarida qo‘llanilganligidan dalolat beradi. V.A.Suxomlinskiy tomonidan o‘tgan asrning 1960-yillarida yaratilgan ilmiy ishlarda ham ta‘lim tizimiga interfaol metodlarni tatbiq etish tajribasini uchratish mumkin⁴⁰.

XX asming 70-80-yillarida esa Rossiyada Sh.A.Amonashvili, V.F.Shatalova, Ye.N Ilina va boshqalar tomonidan ta‘lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, ta‘lim oluvchilarda o‘qitishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish yo‘llarini topish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham interfaol metodlarning amaliy ahamiyati, ularni samarali qo‘llash shartlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan⁴¹.

Interfaol ta‘limda o‘qitish jarayoni o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish asosida tashkil etiladi. Bu kabi ta‘lim erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, «o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘quvchilar guruhi»ning o‘zaro

³⁶ Pedagogika. Izohli lug‘at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O‘.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: “Innovatsiya ziyo” nashriyoti, 2020. – 174-b.

³⁷ «O‘zbekistonning umidli yoshlari» mavzusidagi 3-son Respublika ilmiy talabalar, magistrilar yosh tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun onlayn konferensiyasi [Toshkent; 2021] 98-b.

³⁸ Tolipov O‘tkir, Ro‘ziyeva Dilnoza / Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (O‘quv qo‘llanma) / Toshkent: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019 / 114-b.

³⁹ Pedagogika. Izohli lug‘at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O‘.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: “Innovatsiya ziyo” nashriyoti, 2020. – 86-b.

⁴⁰ Tolipov O‘tkir, Ro‘ziyeva Dilnoza / Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (O‘quv qo‘llanma) / Toshkent: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019 / 156-b.

⁴¹ Tolipov O‘tkir, Ro‘ziyeva Dilnoza / Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (O‘quv qo‘llanma) / Toshkent: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019, 156-b.

bir-birlarini hurmat qilishi, tushunishi va qo'llab-quvvatlashi, samimiy munosabatda bo'lishi, ruhiy birlikka erishishi bilan tavsiflanadi⁴².

Qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar interfaol metod o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

- ✓ dialogli muloqot;
- ✓ qaytar aloqaning mavjudligi;
- ✓ tafakkur faolligi;
- ✓ hissiy ko'tarinkilik;
- ✓ refleksiya⁴³;
- ✓ ta'limning yuqori samaradorligi.

Odatda interfaol metodlarga asoslangan ta'limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- idividual shaklda;
- guruhli shaklda;
- juftlik shaklida;
- jamoa bilan ishlash shaklida⁴⁴.

Zamonaviy pedagogika interfaol metodlarga boy bo'lib, ular orasida quyidagi eng muhimlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- kichik guruhlarda ijodiy topshiriqlarni bajarish;
- didaktik o'yinlar (rolli o'yin, imitatsiya va ishbilarmonlik o'yinlari)⁴⁵;
- ijtimoiy resurslar (mutaxassis, ekskursovod va boshqalar)ning imkoniyatlaridan foydalanish;
- ijtimoiy loyihalar;
- interfaol ma'ruzalar;
- ko'rsatmali qurollar, video va audiomateriallar bilan ishlash, «Mozaika», muammoli savollar va Suqrot dialogidan foydalanish;
- murakkab va bahsli savol hamda muammolarni muhokama qilish («Muayyan o'rinni egalla»), loyihalash texnikalari, «Karusel», «Yakkalik - juftlik - barcha», «O'rinni almashtir!», «Televizion tok-shou uslubidagi bahs» debat, simpozium, davra stoli va b.);
- muammoni yechish, muayyan muammoli vaziyatlarni tahlil qilish («Qarorlar shajarasi», «Aqliy hujum», «Breynstorm», «Kazuslarni tahlil qilish», «Kelishuvlar va mediatsiya», «Pog'onalar va varraklar» va sh.k.)⁴⁶.

Quyida interfaol metod asosida darslarda va darsdan tashqari vaqtlarda foydalanish bo'yicha bir qator didaktik o'yinlarni keltirib o'tamiz.

⁴² Pedagogika. Izohli lug'at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O'.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: «Innovatsiya ziyo» nashriyoti, 2020. – 87-b.

⁴³ Tolipov O'tkir, Ro'ziyeva Dilnoza / Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (O'quv qo'llanma) / Toshkent: «INNOVATSIYA-ZIYO», 2019, 214-b.

⁴⁴ Tolipov O'tkir, Ro'ziyeva Dilnoza / Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (O'quv qo'llanma) / Toshkent: «INNOVATSIYA-ZIYO», 2019, 158-b.

⁴⁵ Pedagogika. Izohli lug'at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O'.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: «Innovatsiya ziyo» nashriyoti, 2020. – 250-b.

⁴⁶ Tolipov O'tkir, Ro'ziyeva Dilnoza / Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (O'quv qo'llanma) / Toshkent: «INNOVATSIYA-ZIYO», 2019, 159-b.

Guruhli o'yinlar: «Bo'sh o'rin», «O'radagi bo'ri», «Harakatlanuvchi nishon» va shu kabilar.

Katta tanaffuslarda «Ro'molchani ol» harakatli o'yinini o'tkazishni tavsiya etish mumkin. «Ro'molchani ol» o'yinining asosiy mazmuni shundaki, biror-bir balandlikka osilgan, ya'ni daraxt shoxchasiga yoki gimnastik devor zinalariga osib qo'yilgan ro'molchani sakrab olish. Ro'molchani shunday osish kerakki, asta-sekin uni yuqorilatish mumkin bo'lsin, buning uchun kichik arqonchadan foydalanish. Birinchi balandlikni shunday tanlab olinadiki, bunda bola ro'molchani olishi uchun hech bo'lmaganda 10 sm. balandlikka sakrasin. Keyin bu balandlik orttirib boriladi, ba'zi bolalar bu balandliklarda ro'molchani ola olmaydilar, har bir harakat qilishda ro'molchani oladigan bolalar soni kamayib boradi va natijada g'olib chiqadigan bitta bola qoladi.

3-4-sinf o'quvchilari didaktik hikoyalar davomida harakatlar bajarishga o'rganadilar o'qituvchi ma'lum mazmundagi hikoyani aytayotgan paytida bolalar shu hikoya mazmuniga mos keladigan harakatlarni (yurishda, yugurishda, tirmashib chiqishda va boshqalarda) ifodalaydilar. Bu harakatlar tematik mazmunda va she'r shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Tanafuslarda o'tkaziladigan harakatli o'yinlarni nostandart qurollar bo'lgan joyda o'tkazishni tavsiya etiladi.

«Poxodda». Bolalar maydon chetidan kolonna bo'lib yuradilar. Ular o'z yurishlarini boshlovchi o'qiyotgan hikoya mazmuniga moslashtiradilar: «Biz hozir sayrga chiqamiz, so'qmoqlar orqali o'rmon ichiga kirib boramiz, qo'llarni orqaga qo'yib, bir-birimizning ketimizdan yurib boramiz», deb harakatlanadilar⁴⁷.

«Aqliy hujum» uslubi. «Aqliy hujum» biron-bir muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga keladigan eng samarali uslubdir. Muammoli o'qitishda o'quvchi tayyor bilimlarni bayon qilmasdan balki o'quvchilar oldiga muammolar, vazifalar qo'yadi va ularni ushbu vazifalarni bajarishga undaydi. Muammoli o'qitishda o'quvchi bilimlarni mustaqil, shaxsiy-ijodiy faoliyat yo'li bilan egallaydi, fikrlashi rivojlanadi. Muammoli o'qitishda o'quvchilar o'z fikrlarini qancha ko'p taqdim etsa, natija shuncha yaxshi bo'ladi⁴⁸.

«Fikrlarning shiddatli hujumi» metodi. Mazkur metod Ye.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan. «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodining mohiyati jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir ta'lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish hamda ta'lim oluvchilarda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga ikki qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir. Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg'ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ular quyidagilardir:

1-bosqich. Ruhij jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ta'lim oluvchilarni o'zida biriktirgan hamda son jihatdan teng bo'lgan kichik guruhlarni shakllantirish.

⁴⁷ T.Ismoilov / Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi / o'quv-uslubiy majmua / Namangan, 2021 / 119-b.

⁴⁸ «O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlar: Davriy anjumanlar:» mavzusidagi respublika 40-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to'plami, 31 may 2022 yil. - Toshkent: «Tadqiqot», 2022 / 15-b.

2-bosqich. Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash.

3-bosqich. Guruhlar tomonidan muayyan g‘oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlarning hal etilishi).

4-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini muhokama etish, ularni to‘g‘ri hal etilganligiga ko‘ra turkumlarga ajratish.

5-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya‘ni ularni to‘g‘rilik darajasi, yechimini topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi mezonlar asosida baholash.

6-bosqich. Dastlabki bosqichlarda topshiriqlar yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish.

Yuqorida mohiyati bayon etilgan «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodini 4-sinflarda o‘qish, matematika va tabiiy fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida birdek muvaffaqiyatli qo‘llash mumkin. Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

1. O‘quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish;
2. Vaqtni iqtisod qilish;
3. Har bir o‘quvchini faollikka undash;
4. Ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

Ko‘rinib turibdiki ushbu metod ta‘lim oluvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish, vaqtni iqtisod qilish, har bir ta‘lim oluvchini faollikka undash, ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirishga yordam beradi. Mazkur uslublardan tashqari juda ko‘p metodlar ham mavjudki ulardan o‘qituvchi dars mavzusiga mos uslubni tanlay bilishi o‘ta muhimdir⁴⁹.

«Bilimdonlar bellashuvi» usuli. Bu usulni 2-4-sinflarda qo‘llash mumkin. Bunda o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha o‘rgangan bilimlarini hayotiy tajribalar, qiziqarli ma‘lumotlar asosida ko‘rsatib beriladi. Tadbir quyidagi shartlar asosida olib boriladi:

1-shart. O‘yla, izla, top. O‘quvchilar uchta guruhga bo‘linadilar, guruhga nom topadilar va unga qisqacha ta‘rif beradilar. Bunda guruhlarga 3 daqiqa vaqt beriladi. Guruh nomiga berilgan ta‘rifga ko‘ra 1 baldan 5 balgacha baholanishadi.

2-shart. Tezkor savollarga tezkor javob. Bunda har bir guruhga o‘tilgan mavzular yuzasidan o‘qituvchi tomonidan 3 tadan savollar beriladi va ular savollarga tezkorlik bilan 10 soniya ichida javob berishlari kerak bo‘ladi. Har bir to‘g‘ri javoblar 1 baldan baholanadi. Qaysi guruhda javoblar soni ko‘p bo‘lishiga qarab ushbu shart g‘olibi aniqlanadi.

3-shart. «Kim tez tuzadi». O‘zbekiston xaritasi bir necha bo‘lak holida guruhlarga taqdim etiladi. Qaysi guruh 3 daqiqa ichida birinchi bo‘lib xaritani bexato yig‘ib bo‘lsa, o‘sha guruh g‘olib hisoblanadi va ball beriladi.

4-shart. Yo‘l harakati shartli belgilari. Har bir guruhga 3 tadan yo‘l harakati belgilari aks etgan rasmlar ko‘rsatiladi. O‘quvchilar, ular qanday shartli belgi ekanini aytishlari lozim. Har bir topilgan to‘g‘ri javob uchun 1 baldan beriladi.

⁴⁹ «O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar: Davriy anjumanlar:» mavzusidagi respublika 40-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to‘plami, 31 may 2022 yil. - Toshkent: «Tadqiqot», 2022 / 21-b.

5-shart. Top-top topishmoq. Bunda guruhlarga 3 tadan topishmoq aytiladi, guruhlar topishmoq javobini topadilar. Har bir to‘g‘ri javob uchun 1 baldan beriladi. Eng ko‘p topgan guruh, g‘olib hisoblanadi.

Tadbir so‘ngida eng ko‘p ball to‘plagan jamoa g‘olib hisoblanadi va munosib sovg‘a va a‘lo baholar bilan rag‘batlantiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni ayta olamizki, tanlovda muayyan mavzular bo‘yicha o‘quvchining tayyorgarlik darajasi, egallagan bilimi, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash va chuqurlashtirishdan iboratdir.

O‘qitish jarayonida «Eshitdim», «ko‘rdim», «o‘zlashtirdim», «hamkorlikda o‘qidim», «bildim», «fikrladim», «esda saqladim», «o‘zlashtirdim» va «mustahkamladim» tarzida tashkil etiladi.

Musobaqa-tanlov quyidagi shakllarda o‘tkazilishi mumkin:

- Muammoli.
- Boshqotirmalar, viktorina, rebus, krossvordlar yechish.
- Quvnoqlar va zukkolar tanlovi.
- Tezkor turnir⁵⁰.

«**Besh harfga besh so‘z**» o‘yini. Bu 3-4-sinflarda samaraliroq bo‘ladi. Eng avvalo sinfni ikki guruhga bo‘lib olinadi, so‘ng ikkala guruhdan bittadan o‘quvchi yozuv doskasi oldiga chiqadi. Bu o‘quvchilar o‘qiyotgan faniga oid bo‘lgan 5 ta harfdan iborat bo‘lgan so‘zni ustun shaklida yozuv taxtasiga yozadilar. Guruhning qolgan ishtirokchilari esa ana shu 5 ta harfdan iborat bo‘lgan so‘zning har bir harfiga fanga oid 5 tadan so‘z yoki atamalarni birin-ketin yozuv taxtasiga yozishadi. Atamalar soni kam bo‘lgan, yoki to‘xtab qolgan guruh mag‘lub bo‘ladi.⁵¹

Misol uchun:

1	B	<i>Baliq, buyrak, buta, buloq, bakteriya.</i>
2	U	<i>Ustyurt qo‘yi, uloq, ugom badani, uy parrandalari, unumdorlik.</i>
3	L	<i>Lochin, laqqa, laylak, loviya, linoleum.</i>
4	U	<i>Umurtqa pog‘onasi, uy hayvoni, uzum, urug‘, ulug‘vor ko‘zagul.</i>
5	T	<i>Tol, terak, tok, tuya, toychoq.</i>

O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash ta‘lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. An‘anaviy mashg‘ulotlarda bunday metod va didaktik o‘yinlardan foydalanish bor bilimlarni boyitish va ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasini o‘shirishga olib keladi. Samaradorlikni oshirishda metodlarni va didaktik o‘yinlarni to‘g‘ri tanlash ham muhim ahamiyatga ega. Mashg‘ulotlarda bunday yondashuv orqali quidagilar namoyon bo‘ladi:

- ✓ Bolalar qiziqishini oshiradi.
- ✓ Diqqat, idrok, tafakkur xotira kabi bilish jarayonlariga ta‘sir ko‘rsatadi.
- ✓ O‘zlashtirish va tezda esda saqlashga yordam beradi.
- ✓ Tashabbuskorlik va tezkorlikni shakllantiradi.
- ✓ Ilgari orttirilgan bilimlarni mustahkamlaydi.

⁵⁰ «O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar: Davriy anjumanlar:» mavzusidagi respublika 40-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to‘plami, 31 may 2022 yil. - Toshkent: «Tadqiqot», 2022 / 39-b.

⁵¹ Ilm-fan va ta‘limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to‘plami 27- aprel 2020- yil / 21-b.

- ✓ Mustaqil faoliyatda o‘zini ko‘rsatadi.
- ✓ Jamoaviy faoliyatda liderlik va ma’suliyat hissini shakllantiradi.
- ✓ Rolli o‘yinlar orqali amaliy mashqlarni mustaqil barishga harakat qiladi.

«**Bittasi ortiqcha**» didaktik o‘yini. Buning uchun so‘z beriladi va unga ortiqcha bir harf ham qo‘shib yoziladi. O‘quvchi so‘zdagi ortiqcha harfni topadi. Masalan: «mazza» so‘zida bir «z» harfi ortiqcha, «eshshak» so‘zida bir «sh» harfi ortiqcha qo‘llanilgan. Bu didaktik o‘yinni 2-4-sinflarda barcha mavzuli ona tili darslarida qo‘llash mumkin.

Har darsda tarqatma sifatida qo‘llasa, samaradorligi yuqori bo‘ladi. Mahoratli pedagogning har bir darsi kichik kashfiyotdir. Har bir fan o‘qituvchisining ta’lim-tarbiya jarayonini interfaol, zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida tashkil eta olishi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda nihoyatda ahamiyatlidir. Bu boradagi ishlarni muvaffaqiyatli hal etish Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan, albatta, chuqur bilim, izlanishni talab etadi. Zero, oldimizda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, dunyoqarashi keng, o‘z shaxsiy fikriga ega, har bir so‘zini hayotiy misollar bilan dalillay oladigan, O‘zbekistonimiz kelajagi uchun o‘z hissasini qo‘sha oladigan yosh avlodni tarbiyalashdek yuksak va sharafli vazifa turibdi⁵².

«**Chalkash so‘zlar zanjiri**». Bu usulda 2-4-sinf o‘quvchilari e’tiboriga ona tili darsida biror mavzu bo‘yicha tuzilgan gapning odatdagi tartibi buzilgan holda beriladi. O‘quvchining vazifasi – gap bo‘laklarini tartib bilan mantiqiy joylashtirish. So‘zlarni o‘zaro bog‘lash uchun ular shakl yasovchi qo‘shimcha va bog‘lovchi so‘zlarni qo‘llashi, matn ham tuzishlari mumkin. Masalan: deyiladi, fe’llar, tuslovchi, tuslanish, qo‘llanish, bilan, qo‘shimchalar. (*Fe’llarning tuslovchi qo‘shimchalar bilan qo‘llanishi tuslanish deyiladi.*)

«**Domino**» o‘yini. Bu o‘yin pedagogdan katta mahorat talab etadi. O‘yin jarayoniga asossiz aralashuv o‘yin sur‘atini susaytiradi. To‘g‘ri to‘rtburchak qog‘ozga dominodek chiziq tortib, chap tarafiga savol, o‘ng tarafiga umuman boshqa savolning javobi yoziladi. Ana shunday dominolardan bir nechtasi tayyorlanadi. O‘yinning kechishi: xohlagan guruh sardori bitta dominoni qo‘yadi. Chap tarafidagi savolga kimda javob bo‘lsa, o‘sha o‘quvchi o‘zidagi dominoni qo‘yadi. Bu dominoning ham chap tarafidagi savolga keyingi o‘quvchi yoki kimda javob bo‘lsa, shu o‘quvchi javobni qo‘yadi. Dominolar to‘rtburchak shaklda terilib, oxirgi dominoning savoliga birinchi qo‘yilgan dominoning javobi to‘g‘ri kelishi kerak. Kimda dominolar tez tugasa, o‘yindan tez chiqadi va ko‘p ball oladi. Agar savollarga to‘g‘ri javob berilmasa, unda to‘rtburchak shakli hosil bo‘lmaydi. Bu o‘yinning ta’limiy maqsadi o‘quvchilarga darslarda olgan bilimlarini tez va ongli ravishda amalda qo‘llay olishni o‘rgatadi. Bunday o‘yinlar orqali o‘quvchilarning darsga qiziqishi kuchayib, faolligi oshadi⁵³. Bu usuldan deyarli barcha fanlarda foydalansa bo‘ladi.

Kommunikativ o‘yinlar o‘quvchilarning qobiliyat va bilim darajalariga mos tushishi kerak. O‘yin orqali gapirishdagi kamchiliklar bartaraf etiladi. Ko‘pincha o‘quvchilar an’anaviy darsda javob berayotganlarida o‘zlariga hamma qarab turgandek his qiladilar va bundan hijolat

⁵² Ilm-fan va ta’limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to‘plami 27- aprel 2020- yil / 69-b.

⁵³ Ilm-fan va ta’limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to‘plami 27- aprel 2020- yil / 226-b.

bo‘lib, undan ko‘ra ovoz chiqarmay o‘tirishni ma‘qul ko‘radilar. O‘yin orqali o‘quvchilar bir-biriga kirishib ketadilar va o‘zlarini oldingidek noqulay his qilmaydilar.

Dars jarayonida qo‘llanadigan o‘yinlarning maqsadi shundan iboratki, ular so‘zlar va ularning ma‘nolarini o‘rganish va ularni turli kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash, grammatik strukturani tushunish hamda uni tanlangan iboralar bilan birgalikda faol qo‘llay olish uchun imkoniyat yaratadi. O‘yinning o‘quvchilarni motivatsiya qilish kuchini hamda ulardagi sinf orasida «ochiq» so‘zlay olishdan qo‘rqish hissini yo‘qotishini ham yuqoridagidan kam bo‘lmagan ahamiyati sifatida ko‘rsatishimiz mumkin. O‘qituvchi dars jarayonida o‘yinlardan foydalanar ekan, o‘quvchilarga yanada faolroq bo‘lish uchun, darsda muvaffaqiyatli qatnashish uchun turtki bergan hisoblanadi. Bundan tashqari o‘yinlar o‘quvchilarning kayfiyatlarini ko‘tarish uchun ham xizmat qilishi mumkin. Quyida shunday o‘yinlardan yana bir nechta keltirib o‘tish mumkin.

«Kir uchun qistirg‘ichlar» o‘yini. Bu o‘yin o‘quvchilar dars davomida toliqib qolganlarida ularni biroz harakatlantirish va darsga yana kirishib ketishlari, charchog‘ini chiqarish uchun qo‘llaniladi. Odatda, bu o‘yin darsning o‘rtasida yoki yakuniy qismga yaqin o‘tkazilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har bir o‘yin ishtirokchisi 5 donadan kir uchun qistirg‘ichlarni kiyimlariga mahkamlab oladilar. Buyruq berilishi bilan ular xona bo‘ylab yugura boshlaydilar va iloji boricha boshqalarning kiyimidagi kir qistirg‘ichlarni olib, o‘zlarining kiyimiga qadashga urinadilar. 3 daqiqadan so‘ng o‘yin to‘xtatiladi va kiyimiga eng ko‘p qistirg‘ichlarni to‘plagan ishtirokchi g‘olib hisoblanadi. Lekin o‘qituvchi o‘yinda «kuch» ishlatilmasligi haqida ogohlantirishi va uni nazorat qilib turish kerak⁵⁴.

Yana shuni yotda tutish kerakki, o‘qituvchi innovatsion metoddan foydalanishda quydagilarni bilishi lozim:

- innovatsion texnologiya tushunchasi, uning mazmun-mohiyati;
- ta‘lim maqsadini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli;
- fanlar bo‘yicha innovatsion texnologiyalarni qo‘llash prinsiplari;
- ta‘limiy va ishchanlik o‘yinlari;
- muammoli rivojlantiruvchi ta‘lim metodlari;
- o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta‘minlash yo‘llari;
- o‘quvchilarning mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullari;
- ko‘rgazmali o‘qitish usullari;
- imitatsiya o‘quv-mashg‘ulotlari;
- ta‘lim-tarbiyani faollashtiruvchi usullar⁵⁵.

Boshlang‘ich sinflarda, ayniqsa, tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida foydalaniladigan didaktik o‘yinli darslarning ahamiyati juda katta. Jumladan, o‘quvchilar didaktik o‘yinli darslarga katta qiziqish bilan tayyorgarlik ko‘radilar, natijada yangi bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligi sifatli bo‘ladi. Didaktik o‘yinli darslar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ilk bor

⁵⁴ Ilm-fan va ta‘limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to‘plami 27- aprel 2020- yil / 306-b.

⁵⁵ «O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar: Davriy anjumanlar:» mavzusidagi respublika 40-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to‘plami, 31 may 2022 yil. - Toshkent: «Tadqiqot», 2022 / 12-b.

kasb tanlashida o‘z kuchi, bilimi, iqtidorini sinab ko‘rishda, shuningdek, ularni hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi⁵⁶.

Masalan, Tabiiy fanlar darsida suv havzalari mavzusida quyidagi interfaol o‘yinni o‘tkazish mumkin. O‘qituvchi buning uchun kartochkalarga daryo, dengiz, ko‘l hamda okeanlarning nomini yozib kelib, o‘zining stoliga qo‘yadi va sinf o‘quvchilarini kamida 4 ta guruhga bo‘lib, o‘yin shartini tushuntiradi. Doskaga raqamlar bilan suv havzalarining umumiy nomini ham yozib qo‘yadi. Har bir guruh daryo, dengiz, ko‘l va okean nomlari bilan yuritiladi. Har bir o‘quvchi o‘qituvchi stolidagi yozuvi pastga qaratilgan kartochkani oladi hamda uni o‘qib o‘zini qaysi guruhga mansub deb topsa, o‘sha nomli guruhga qo‘shiladi yoki shu nom oldiga borib turadi. Misol uchun, «O‘rta Yer» yozuvili kartochkani olgan o‘quvchi «Dengiz» guruhiga borib turishi kerak bo‘ladi, yoki «Amu» nomli kartochkani olib, «Daryo» guruhiga, «Baykal» nomli kartochkani olib, «Ko‘l» guruhiga, «Hind» nomli kartochkani olib, «Okean» guruhiga borib qo‘shiladi. Agarda o‘quvchi yanglishib, boshqa guruhga qo‘shilib olsa, u mag‘lub hisoblanadi va o‘yindan chiqariladi. Suv havzalarini to‘g‘ri guruhlagan barcha o‘quvchilar baholanadi va rag‘batlantiriladi.

Yana bir didaktik o‘yin: o‘qituvchi turli qiymatga ega bir qancha savollar tuzib konvertga soladi. 1000 so‘mlik, 5000 so‘mlik hamda 10000 so‘mlik savollar solingan konvertni o‘quvchilariga ko‘rsatadi. Bu o‘yinni istalgan fan bo‘yicha turli mavzularda o‘tkazish mumkin. O‘quvchilar o‘zlari istagan qiymatli savollarni tanlashadi va ularni o‘qib javob berishadi. To‘g‘ri javob bergan har bir o‘quvchi savol qiymatidagi ramziy summaga ega bo‘lishadi, aks holda shu summaga qarz bo‘lishadi. O‘yin so‘ngida har bir o‘quvchi to‘plagan ramziy summalar hisoblanadi va eng ko‘p ramziy summaga ega o‘quvchi g‘olib hisoblanadi va eng yuqori baho hamda turli xil rag‘batlantirishlar bilan rag‘batlantiriladi. Bunda o‘quvchilarning bilish darajasini, o‘ziga ishonchini, ishtiyoqini va shijoatini aniqlab olish mumkin.

O‘qish darslarida rol ijroviy badiiy asarlar o‘qish, Ingliz tili darslarida «To‘g‘ri yoz» o‘yini orqali tinglab yozish, yoki so‘z boyligini oshirish ko‘nikmalarini hosil qilish mumkin bo‘ladi.

4-sinflarda reyting usulida dars o‘tishda «**Tarvuz**» harakatli o‘yinini o‘ynash mumkin. Tarvuzning pishganini tekshirib ko‘rish uchun uni ichidan matematik diktant olamiz. Demak, uni yeyish uchun shartlarni bajarish kerak:

1. 1000 va 4 sonlarining ko‘paytmasini yozing.
2. 9999 bilan 9 ning ayirmasini yozing.
3. 1 km necha metr?
4. 2 ta traktor bir vaqtda bir xil tezlik bilan yursa, birinchi traktor bir soatda 16 km yo‘l yursa, ikkinchi traktor qancha yo‘l yuradi?
5. 3 sutka necha soatga teng?
6. Bir tonna necha kg?

Bir xonali songa oid ko‘rgazmali qurollar orqali amaliy mashqlar o‘tkazish mumkin. Bunda «**Vagonchalar**» o‘yinini o‘ynash mumkin. Har bir savollar

⁵⁶ Ilm-fan va ta’limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to‘plami 27- aprel 2020- yil / 383-b.

vagonlarga yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar har bir mashqni bajarganlarida vagonchalar soni ortib boradi.

Bundan tashqari, «**Koinotga sayohat**» harakatli o‘yini orqali o‘quvchilar olgan bilimini sinab ko‘rishlari ham mumkin. Magnit doskasiga koinot shakli, raketa va yulduzlar yopishtiriladi. Raketaga mustahkamlanayotgan bosh mavzu yoziladi. Yulduzlarga misol va masalalar yoziladi. Raketa doskaning quyi qismidan boshlab uchadi. U yetib borgan joydagi yulduzlar ortida yozilgan topshiriqlar bajarilishi kerak. Oxirgi misolgacha raketa yuqoriga intiladi va Oyga yetib boradi. O‘quvchilar g‘olib deb topiladi. Bunday o‘yinlardan ko‘plab keltirish mumkin. Eng muhimi, biz uchun ular natijasida bola o‘zlashtirayotgan tushunchadir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, boshlang‘ich sinflarga matematika darslarini turli o‘yinlar orqali olib borish yaxshi natija beradi. Matematika fanlar shohi ekanligini isbotlaydi, o‘quvchilarni faollikka undaydi. Zero, qatrada quyosh aks etganidek o‘qituvchi mehnatida o‘quvchilarning kamoli akslanadi⁵⁷.

TADQIQOT NATIJALARI

Boshlang‘ich ta‘lim tizimida samarali dars faoliyatini tashkil qilish va olib borish uchun turli xil zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun umumta‘lim maktabi xodimlari o‘rtasida anketa-so‘rovnoma usulidan foydalandik va joriy holat yuzasidan yetarlicha ma‘lumot yig‘ishga muvaffaq bo‘ldik.

Mavzu doirasida Respublika umumta‘lim maktabi pedagoglari o‘rtasida darslarda qanday interfaol metod va usullardan kengroq foydalanayotgani va qanday didaktik o‘yinlarning ta‘lim sifatidagi samarasi yuqori ekanligini tahlil qilish maqsadida onlayn va oflayn anketa-so‘rovnoma tashkil qilindi. Ijtimoiy-so‘rovnomada yuzdan ortiq respondent ishtirok etdi. Ofayn so‘rovnoma Farg‘ona viloyati xalq ta‘limi tashkilotlari Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hamda Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahar 30-umumta‘lim maktabi xodimlari bilan o‘tkazildi.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra 70 foizdan ziyod pedagoglar interfaol metodlar va didaktik o‘yinlarning 30-40 foizidan foydalanishi, bor yo‘g‘i 30 foizga yaqin pedagoglarga 60 foiz va undan ziyodroq didaktik o‘yinlar turidan darslar jarayonida foydalanishlari ma‘lum bo‘ldi. Shuningdek, SWOT tahlili yordamida zamonaviy ta‘lim-tarbiya jarayonidagi muhim interfaol ta‘lim darslarida didaktik o‘yinlarning afzalliklari va kamchiliklari, imkoniyatlari hamda to‘siqlarini tahlil qilishga ham erishdik. Ayrim, oz sonli pedagoglarimiz interfaol metodlardan o‘rinli foydalana olmasliklari, vaqtni taqsimlashdagi xatolik – didaktik o‘yinlar butun bir dars soatini o‘g‘irlashi sabab to‘g‘ri tashkillay olmasliklaridan samarasiz bo‘lganligi aniqlandi. Lekin biror bir pedagog didaktik o‘yinlarning mutlaqo salbiy aks ta‘siri borligi haqida so‘zlashmadi. Aksincha, darslarining samarali o‘tishini ta‘kidlashdi. Ayrim didaktik o‘yinlar ma‘lum shart-sharoitlarni va vaqtni talab qilishi barcha hududlardagi dars jarayonlarida unumli foydalanishga to‘siq bo‘lsa-da, ammo o‘quvchilarga ta‘siri va samarasi o‘laroq keng imkoniyatlarga ega ekanligi barchamizga kundek ravshandir.

DISCUSSION & MUHOKAMA

⁵⁷ Ilm-fan va ta‘limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to‘plami 27- aprel 2020- yil / 74-b.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek: «Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya⁵⁸ bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha – ta’limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni boshladik»⁵⁹.

Ma’naviy yuksalish tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati haqida pedagog Z.Qosimova shunday fikr bildiradi: «Shaxs kamoloti yo‘lida zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talab – ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmasdan, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdir»⁶⁰.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish uchun o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib, tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Interfaol metodlardan foydalaniladigan o‘quv jarayonida o‘quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarini va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni yechishga, alternativ fikrlarni chamalab ko‘rishga va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, bahslarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga o‘rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o‘yinlar, ijodiy ishlar qo‘llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi.

Umuman olganda, ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan interfaol metodlar bugungi ta’lim jarayonining asosiy qon tomirlari hisoblanadi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi⁶¹. Pedagog o‘z maqsadiga osonroq va tezroq erishadi.

O‘qituvchi dars rejasini tuzadi (qoida bo‘yicha interfaol mashq va topshiriqlar o‘quvchi o‘zlashtirayotgan material bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi). O‘quvchilar bajaradigan interfaol darsdagi interfaol mashq va topshiriqlar uning asosiy tarkibi hisoblanadi. Oddiy mashq va topshiriqlardan shunisi bilan farqlanadiki, ularni bajarish jarayonida o‘rganilgan material nafaqat mustahkamlanadi, balki yana yangilari ham olinadi⁶².

Interfaol metodlar qo‘llanilganda ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e‘tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiq lashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;

⁵⁸ H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov / Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / Toshkent «Iqtisod-moliya» 2009, 98-b.

⁵⁹ Ilm-fan va ta’limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to‘plami 27- aprel 2020- yil / 263-b.

⁶⁰ Ilm-fan va ta’limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to‘plami 27- aprel 2020- yil / 264-b.

⁶¹ «O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar: Davriy anjumanlar:» mavzusidagi respublika 40-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to‘plami, 31 may 2022 yil. - Toshkent: «Tadqiqot», 2022 / 14-b.

⁶² Ilm-fan va ta’limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to‘plami 27- aprel 2020- yil / 74-b.

- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraf lama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi⁶³.

Demak, interfaol metodlarni qo‘llash natijasida vaqtni tejash, har bir o‘quvchini faollikga undash, ularda erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirish, fanga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish mumkin⁶⁴.

Agar biz dars jarayonida mavzularni faqatgina ilmiy yondashmasdan hayotiy qonuniyatlar, vaziyatlar bilan bog‘lab didaktik-interfaol o‘yinlar orqali tushuntiradigan bo‘lsak o‘quvchilarning dunyo qarashini kengaytirib, PISA va PIRLS xalqaro dasturlarida ishtirok etishga bilim ko‘nikma malakalarini ham oshirgan bo‘lardik.

XULOSA

Bola bog‘cha davridan maktab davriga o‘tar ekan, uning faoliyati o‘zgaradi. U endi maktab qoidalariga o‘rganib borishi kerak bo‘ladi. Bola endi uzluksiz o‘yin jarayonidan 45 minutli davomli dars jarayoniga moslashib borishi kerak bo‘ladi. Endi o‘quvchi bog‘chadan maktabga o‘tish jarayoni davomida o‘z xil-xususiyatlarini namoyon qila boshlaydi. Ko‘pincha o‘quvchi o‘qituvchi faoliyatini (gapirish uslubini, yozuv taxtasiga yozishini) aynan takrorlashga harakat qiladi. Ya‘ni ko‘rayotgan narsasini aynan takrorlaydi. Bu darslarda aksariyat bolalarda psixologik inqiroz yuz berishi kuzatiladi.

Ushbu holatni psixologik jihatdan yaxlit qilib, lo‘nda ifodalansa, bolaning o‘yin faoliyati maktab faoliyatiga o‘z o‘rnini bo‘shatib beradi. Lekin bu masalaning tashqi jihati xolos. Aslida bolaning bog‘cha davridan maktab davriga o‘tishida ancha murakkab ruhiy jarayon amalga oshadi. Bu davrda izlanuvchanlik metodlari ta‘limning yetakchi uslubiga aylanadi.

Mazkur holatning oldini olish, 1-sinf o‘quvchisini ongli o‘quv faoliyatiga jalb etish uchun o‘yinga asoslangan ta‘lim g‘oyasi aynan shu muammoni hal etishga qaratiladi. Barcha davrda ta‘limning asosiy muammosi o‘quvchini o‘ziga jalb eta olish, uni qiziqtirish, faoliyatidagi muhim o‘rinni egallash o‘qituvchi uchun o‘ta muhim hisoblanib kelingan. Boshlang‘ich sinflarda ushbu muammo hal etuvchi masaladir. Ta‘lim jarayonida amalga oshiriladigan o‘yinlar 2 turga bo‘linadi:

- 1) ko‘ngilochar o‘yinlar;
- 2) ta‘lim beruvchi o‘yinlar.

Olimlarning haqli ravishda uqtirishlaricha, ta‘lim jarayonida ko‘pchilik o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilayotgan o‘yinlar doim ham faol bilim olishga yo‘naltiravermaydi. O‘qituvchilar ba‘zan bolalarga dam berish, ulardagi zerikishni oldini olish maqsadida hordiq oluvchi o‘yinlardan foydalanishadi. Albatta, bunday o‘yinlar bola faoliyatida katta ahamiyatga ega. Ular bolada tashkilotchilik, birdamlik, do‘stlik, o‘zgalarga yordam berishga tayyorlik kabi tuyg‘ularni rivojlantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Lekin bunday o‘yinlarni aksariyat o‘quvchilarda charchoq kuzatilganda aqliy zo‘riqishning oldini olish maqsadida qo‘llash zarur. Odatda tajribali o‘qituvchilar o‘z darslarida o‘yin elementlarini tez-tez o‘tkazishi, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishi bilan birgalikda o‘quvchilarning mahorati ham oshib boradi.

⁶³ Ilm-fan va ta‘limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to‘plami 27- aprel 2020- yil / 224-b.

⁶⁴ Ilm-fan va ta‘limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to‘plami 27- aprel 2020- yil / 216-b.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari sahna ko'rinishi darslarini juda qiziqib tomosha qiladilar. Ayniqsa, ular o'zlari ishtirok etgan rollarni to'laqonli bajarishga ijodiy yondashadilar. Agar matn juda katta bo'lsa, undan ayrim joylarni qisqartirish yoki o'quvchilar yoshiga moslashtirish mumkin⁶⁵.

Bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Chunki bolalarni o'yinga undovchi sabab o'yindan kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuni bilan bog'liqdir. Bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar.

Maktabda o'qitiladigan har qanday fandan beriladigan bilim, tarkib toptiriladigan ko'nikma va malakalarning shakllantirilishida turdosh o'quv fanlarning o'zaro uyg'unlikdagi imkoniyatlaridan yetarlicha fodalanishning ahamiyatini chuqur anglab yetmog'imiz har bir pedagog va tarbiyachi o'zining kundalik pedagogik faoliyatini o'z fani doirasida fanlararo aloqani amalga oshirishga yo'naltirish zarur va muhim masalalar tarkibiga kiradi.

Ulug' didaktik Yan Amos Komenskiy ta'kidlashicha: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, huddi shunday holda o'rganilishi kerak"⁶⁶.

Agar o'qituvchilarning innovatsion faoliyatida ish olib borishlarini yo'lga qo'ysak, ularning yangilikka intiluvchanligi, izlab topishga, darslarda qo'llashga oid bilim va malakasi shakllanadi, o'z ustida uzluksiz ishlash ko'nikmasi paydo bo'ladi⁶⁷.

Ota-ona va pedagoglarning bola ta'lim-tarbiyasida o'yin faoliyatidan yiroqligi va bola qiziqishiga mos, diqqatini jalb qiladigan, mantiqiy, ijodiy, aqliy rivojlantiradigan interfaol o'yinlarni o'ynashiga yetarlicha e'tibor qaratmaganliklari ularning o'zlashtirishida zaruriy natijalarga erishishda muammolar keltirib chiqarmoqda.

O'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi⁶⁸. U bolalarning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan bir vositadir. Demak, bog'chadagi kabi maktab davrida ham ta'lim tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir. O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda bolalar mansub bo'lgan mehnat ham, narsalar haqida fikr yuritish ham, xayol qilish, dam olish va xushchaqchaqlik manbalari ham mujassamlashtirilgan. Rus yozuvchilaridan biri M. Gorkiy aytishicha "O'yin bolalar uchun o'zlari yashab turgan dunyoni bilish hamda uni o'zgartirish qurolidir"⁶⁹.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning «Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar» deb,

⁶⁵ Ilm-fan va ta'limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to'plami 27- aprel 2020- yil / 191-b.

⁶⁶ «O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlar: Davriy anjumanlar:» mavzusidagi respublika 40-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to'plami, 31 may 2022 yil. - Toshkent: «Tadqiqot», 2022 / 40-b.

⁶⁷ «O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlar: Davriy anjumanlar:» mavzusidagi respublika 40-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to'plami, 31 may 2022 yil. - Toshkent: «Tadqiqot», 2022 / 16-b.

⁶⁸ Z. Nishanova, G. Alimova / Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi / O'quv qo'llanma / Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006, 38-b.

⁶⁹ "Молодой учёный", №9 (143) / 2017. г. Казан, стр.347

bildirgan fikrlari ayni bugungi kunda o‘z isbotini topmoqda. Shundan ma’lum bo‘ladiki, ta’lim jarayoni bevosita inson tafakkuri va uning yaratuvchanligi bilan bog‘liqdir⁷⁰.

Uyda bolalarni mehnatga va kitob o‘qishga yo‘naltirish uchun har bir tadbir hamda yumushni musobaqa tarzida o‘tkazish mumkin. Masalan, men farzandlarimga nimadir olib bermoqchi bo‘lsam, albatta, bitta yangi she‘r, maqol, tez aytish, topishmoq, raqs yoki biror foydali yoshiga munosib yumushni buyurganim holda amalga oshiraman. Vaqtida ovqatini yemaydigan, uxlamaydigan, darsini tayyorlamaydigan erinchoq yoki dangasa bolalar bilan ishlashda ularning zaruriyati va xohish-istaklarini, avvalo, o‘rgangan holda ta’lim-tarbiya ishlari bilan shug‘ullanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ularni qo‘rqitib, majburlab emas, ehtiyojlarini qondirgan holda ta’lim-tarbiya berish eng to‘g‘ri yo‘ldir. Yoshlikdan muntazam ravishda ezgu va foydali amallarga o‘rgatib, ko‘niktirib borish natijasida ularni ko‘plab yomon illatlardan xalos qilish mumkin. Zero, bu dunyodagi barcha ishlarimiz ham qandaydir maqsadlar va manfaatlar sababligina yuzaga keladi. Shunday ekan, oddiy haqiqat – bolalarimiz imkoniyatlari va iqtidorlarini yuzaga chiqarishga alohida mablag‘ yoki vaqt sarf etmaganimiz holda, ularga doimiy zaruriy ehtiyojlari evaziga qandaydir bilimni o‘zlashtirib borishiga turtki beradigan bo‘lsak, bu foydaliroqdir. Shundog‘am kiyim olib berasiz, har kuni taomlantirasiz, yoqtirganini tug‘ilgan kunida yoki bayramlarda sovg‘a qilasiz, istirohat bog‘iga yoki sayru sayohatga olib chiqasiz. Bularni qaysidir yaxshi amalni, kasb-hunarni, tilni, fanni yaxshilab o‘zlashtirib, egallab borishi evaziga, go‘yoki, qo‘shimcha tarzda olib berishingizga ishontirsangiz, o‘ylaymanki, ular sizning azaliy ezgu maqsadingiz – «farzand kamolini ko‘rishlik» baxtiga muvaffaq bo‘ladi.

Afsuski, barcha ota-ona va pedagoglar ham shu fikrni qo‘llab-quvvatlay olishmaydi. Bolaning hayotida o‘yinning muhim o‘rin tutishini anglab yetishmaydi. Shuning uchun ham ko‘pgina ota-onalar bolalariga vaqt o‘tkazishlari va ularga xalaqit qilmasliklari uchun shunchaki, televizor tomosha qilish yoki har qanday kompyuter o‘yini, biror-bir mashg‘ulot bilan shug‘ullanishlariga loqaydlik bilan qarashadi. Zero, bu davrda yo‘qotilgan vaqt, birgina e‘tiborsizlik uning kelajagi uchun jiddiy yo‘qotishlarga, tiklanmas aqliy-ruhiy jarohatlarga, jismoniy zaifliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Aslida, bolaning qiziqishidan kelib chiqib ota-ona va pedagog ular bilan nimani, qanday va qachon amalga oshirish zarurligi haqida kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lishi shart. Bolalar ongi va ruhiyatini toza saqlash hamda begona, zararli g‘oyalar bilan zaharlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir ota-ona va pedagog alohida vaqt ajratib boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan har doim ham qiziqarli va aqliy rivojlantiruvchi didaktik-interfaol o‘yinlar o‘ynab turishlari maqsadga muvofiq. Bu bolaning psixologiyasiga juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada bola o‘zini jamiyatning bir bo‘lagi sifatida his eta boshlaydi: mustaqil mantiqiy fikrlash, ijodkorlik, tashabbuskorlik, voqea-hodisalarga tanqidiy-tahliliy munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini egallaydi. Bu bolaning kelajakda oila va Vatan oldidagi mas’uliyatni his qilishga, o‘ziga bo‘lgan ishonchning ortishiga, yuksak reja va g‘oyalar ortidan tinimsiz o‘qish, o‘rganish, izlanish, mehnat qilishga undaydi. Bir so‘z bilan aytganda, bolalar vatanparvarlik, mehnatsevarlik, g‘amxo‘rlik va mehr-oqibat ruhida shijoatli, g‘ayratli bo‘lib tarbiya topadi. Buning uchun avvalo, bolalarning tahliliy va

⁷⁰ Ilm-fan va ta’limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to‘plami 27- aprel 2020- yil / 196-b.

kreativ⁷¹ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur. Qolaversa, yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak⁷².

Komenskiyning ta'biricha, **bolaning aqliy va jismoniy o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshagan bo'ladi va pedagog** boladagi iste'dodni o'stirishi kerak⁷³. Shuning uchun ham farzandlarimizga ularning bolalik chog'idayoq mehr-muhabbat va e'tibor berib, ularga ko'proq vaqt ajrataylik. Zero, ular atrofidagilar hayotining mazmuni ekanligini to'la qonli anglasin. Ota-ona hamda o'qituvchisining chinakam do'stona munosabati, mehr-muhabbati, g'amxo'rlikiga suyangan har qanday bola kelajakda hech qanday to'siq va muammolardan cho'chimaydigan, kerakli va buyuk shaxs bo'lishga doimiy harakat qiluvchi, har tomonlama yetuk, barkamol inson bo'lib yetishishi shubhasiz.

Interfaol metodlarning bosh maqsadi – ta'lim jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritishi; uning ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan, bilgan, fikr-mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muamoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi⁷⁴.

Farzandining har tomonlama yetuk, barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishini istamaydigan biror-bir ota-ona bo'lmasa kerak, albatta. Bolaning hayotini maqsadli va samarali, harakatli va interfaol, didaktik o'yinlar bilan o'tkazilishiga yordam beribgina biz o'z maqsadimizga erishamiz. Shundagina bola dunyoni, eng avvalo, o'yinlar orqali teranroq anglaydi. Eng asosiysi, o'yinlardan ma'naviy-ma'rifiy, yuksak axloqiy, intellektual, madaniy-estetik ta'lim-tarbiya oladi.

Ma'lumki, o'zbek ayollari zimmasida “milliy sharqona ma'naviyatni saqlab qolish va uni yanada yuksak darajada, zamonaviy asoslarda davom ettirish» kabi mas'uliyatli vazifa yotadi. Ayollar ushbu mas'uliyatli vazifani avvalo oiladagi tarbiyadan boshlashadi. Taraqqiyparvar ma'rifatparvarlardan biri Abdulla Avloniy «Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?» - degan savolga, “Birinchi uy tarbiyasi – bu, ona vazifasidir» - deb, javob bergan edi. Haqiqatdan ham millat tariyasiga birinchi navbatda onalar mas'uldir.

Shunday ekan, ayol millat tayanchi sifatida jamiyat negizi hisoblangan oilada kelajagimiz taraqqiyotining garovi hisoblangan yuksak ma'naviyatli komil insonlarni tarbiyalashda mas'uldir. Ma'naviy dunyo – tarbiya, iymon-e'tiqod va ilm bilan boyib, takomilga yetib,

⁷¹ Pedagogika. Izohli lug'at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O'.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: «Innovatsiya ziyor» nashriyoti, 2020, 109-b.

⁷² Sh.M.Mirziyoyev / Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik / Toshkent, «Nashriyot uyi tasvir» 2021 / 48-b.

⁷³ R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov / Umumiy pedagogika / Toshkent «Fan va texnologiya» 2018 / 431-b.

⁷⁴ «O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlar: Davriy anjumanlar:» mavzusidagi respublika 40-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to'plami, 31 may 2022 yil. - Toshkent: «Tadqiqot», 2022 / 40-b.

shaxsni komillikka yetaklar ekan, bunda millat tarbiyachisi bo‘lgan ayol ma’naviyatining o‘rni o‘sha millatning kelajagi yorug‘ bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Bu haqida yana bir ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat shunday degan edi: «Millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur». Jamiyatda ilg‘or fikrli, ma’naviy kamolot cho‘qqisiga erishgan ayollar qancha ko‘p bo‘lsa, millatning ma’naviyati ham shunchalik yuksak bo‘ladi⁷⁵.

Bola shaxsini tarkib toptirish qanchalik erta boshlansa, u shunchalik ijtimoiylashib boradi. Uning tarbiyasida otaning roli alohida bir mavzu. Dono xalqimiz bejizga “ota bo‘lish oson, otalik qilish qiyin», degan iborani ta’kidlashmagan. Bugungi kun pedagog va psixologlari otaning farzandlarini tarbiyalash, rivojlantirishdagi eng muhim funksiyalarini bola ijtimoiylashuvida, jismoniy va aqliy rivojlanishida, fikrlashida, ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtirishda yetakchi omil ekanligini ta’kidlashmoqdalar.

Ota farzand uchun hamma vaqt ideal shaxs va eng yaqin kishi bo‘lishi lozim. Buning uchun esa bolani go‘daklik davridanoq unda motorika shakllanishida aynan otaning ishtirok etishi bola hayotida ota rolini his etishda dastlabki qadamdir. Ba’zan ota farzandini ishonch bilan erkalab, dast ko‘targan holda o‘ynatishi, bag‘riga bosishi va bu jarayondagi kuch, shijoati onaning bu xildagi harakatlaridan ko‘ra bola uchun ancha ishonchli hamda zavqli tuyuladi. Otaning bola bilan bunday harakatlar orqali o‘ynashi, bolani harakatdan zavqlantirishi uning jismoniy rivojlanishiga bo‘lgan rag‘bat hissini uyg‘otadi. Oilada ota doimo o‘z xatti-harakatlariga jiddiy e’tibor berishi juda muhimdir. Olimlarning fikricha kuchli va muvaffaqiyatli insonlar – sevgi, hamjihatlik va o‘zaro hurmat hukm suradigan oilalardan yetishib chiqadi. Otaning farzandlariga bo‘lgan mehri oilada farovonlik, ruhiy ko‘tarinkilik, psixologik totuvlikni ta’minlaydi. Bunday oila farzandlari ishchan, quvnoq va ko‘p holatlarda muvaffaqiyatli bo‘lishadi⁷⁶.

Harakatli o‘yinlar va sport o‘yinlari, turli estafetalar bolalar o‘rtasida jamoaviylik, o‘rtoqlik va do‘stlik hissini o‘z oldidagi va sport jamoasi oldidagi burchini, mas’uliyatlilik va talabchanlikni his qilishni tarbiyalaydigan eng yaxshi vositalaridandir. Har bir boshlang‘ich sinf pedagogi o‘quvchilari bilan har bir dars soatida 15-20 daqiqa davomida interfaol o‘yinlar mashg‘ulotini amalga oshirish orqali samarali ta’limiy maqsadiga erishishi mumkin⁷⁷. O‘yinlar turlari va mazmuniga, qiziqarliligi va jamoaviyligiga ko‘proq e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. Chunki, chet el psixologlarining tadqiqot o‘tkazishicha; bola biror bir o‘yin turi bilan muntazam ravishda mashg‘ul bo‘lish ularni tezda zeriktiradi va uning ahamiyati yo‘qoladi. Shuning uchun ham uydagi va maktabdagi o‘yin turlarini doimiy ravishda o‘zgartirib, almashtirib turish lozim. Maktabgacha yoshda bo‘lgani kabi Boshlang‘ich maktab yoshida ham bolalarga ko‘proq “harakatli o‘yinlar», “ta’limiy o‘yinlar», “tarbiyaviy-rivojlantiruvchi o‘yinlar», “didaktik-interfaol o‘yinlar» va “milliy o‘yinlar» bola dunyoqarashining kengayishidan tortib to psixik, kognitiv, fiziologik-biologik rivojlanishiga

⁷⁵ «O‘zbekistonning umidli yoshlari» mavzusidagi 3-son Respublika ilmiy talabalar, magistrlar yosh tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun onlayn konferensiyasi [Toshkent; 2021] 35-37-b.

⁷⁶ «O‘zbekistonning umidli yoshlari» mavzusidagi 3-son Respublika ilmiy talabalar, magistrlar yosh tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun onlayn konferensiyasi [Toshkent; 2021] 96-b.

⁷⁷ R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov / Umumiy pedagogika / Toshkent «Fan va texnologiya» 2018 / 315-b.

qadar juda katta yordam beradi. Bolalar ko‘p narsaga qiziquvchan va tezda zerikuvchan xususiyati bilan kattalardan farqlanib turadi. Har doim bolalarimizga murojaat qilganimizda «Sen buyuk ishlarga qodirsan!» deya, murojaat qilsak, albatta, ular bir kun kelib buyuk ishlar qilishadi. Chunki, bizdagi asosiy muammo atrof-olamga qanday qarashimizdadir. Ayniqsa, rivojlanayotgan yosh avlodni o‘ziga yuksak ishonch ruhida tarbiyalash uchun, avvalo, unga dahoga qaragandek qaramog‘imiz va uning izzat-hurmatini saqlamog‘imiz shart.

Shuning uchun siz aziz Ota-onalar xam oilada bolalarga turli xil og‘zaki masalalarni berib tursangiz, farzandlaringizning fikrlash doirasini yanada kengaytirgan, aqliy bilimlarini ham mustahkamlashga o‘z hissangizni qo‘shgan bo‘lasiz⁷⁸.

Yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o‘n, yuz barobar ko‘p foyda keltiradi⁷⁹. Shunday ekan, bor sarmoyamizni sifatli, sermazmun va manfaatli ta‘lim-tarbiya uchun sarf etmog‘imiz, bolalarimizni eng ilg‘or va zamonaviy pedtexnologiyalar va metodlar, ayniqsa, interfaol o‘yinlar orqali, yuqori ko‘tarinki ruhda tarbiyalamog‘imiz kerak emasmi!?

O‘tgan asrimizning taraqqiyparvar yetuk olim va jamoat arboblardan biri Abdurauf Fitrat bolalarning jismoniy tarbiyasida turli harakatli o‘yinlar katta o‘rin tutishini, ota-onalarga o‘z bolalarining shunday o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishlarini ta‘min etishlarini maslahat beradi: «Harakat har bir kishi uchun, ayniqsa bolalar uchun zarurdir. Shuning uchun bolalarni jismoniy chiniqtirishda ularni ayrim o‘yinlar bilan mashg‘ul qilish foydalidir. Bolalarni o‘yindan man etishning foydasi yo‘qdir. Ularning doimo bir joyda o‘tirishlari, harakat qilmasliklari ularni badanlarini zaif bo‘lishlariga olib keladi.

Ota-onalar doim o‘z bolalarini o‘yinga tashviq va targ‘ib qilishlari lozimdir. Ammo bolalarning o‘yinlari odob va axloq doirasidan tashqari chiqmasligi kerak»⁸⁰.

Ta‘limda tarbiyaning rolini oshirishda haligacha ota-onalarning ishtirokida bir qator muammolar uchraydi. Shu ma‘noda oila va maktabning ta‘lim samaradorligida shartnomaviy hamkorligini yo‘lga qo‘yish ota-onalarning masuliyatini oshirish imkoniyatlari zahirasidan foydalanish lozim. Bizning kuzatishlarimiz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyasida ko‘p holatda bobo va buvilarning faolligi, pedagoglarimizning ota-onalar yig‘ilishi va uchrashuvlarida ota-onalarning ishtirokini faollashtirish yaxshi natijalarni olishda yordam beradi. Biz bolalar ota-onalar bilan bevosita yashashidan ularni sog‘lom turmush tarzi bilan elementar odob-axloq tarbiyasiga odatlantirish uslubi bilan bolada go‘zal fazilatlarini tarbiyalaydi. Qolaversa, ota-ona bolaning o‘quv jarayonini nazorati bilan fanlarni o‘zlashtirishda baholi qudrat ko‘maklashuvi ham o‘quvchini maktab ta‘limida jiddiy faollashtiradi. Shu boisdan bizning ta‘lim va tarbiyadagi eng katta muammoyimiz ota-onalarning bolalarining maktab ta‘limiga loqaydligi jiddiy zarar yetkazadi⁸¹.

Oilaviy munosabatlar, madaniyatning takomillashuvi oilani mustahkamlashga, oilada sog‘lom muhitning vujudga kelishiga, farzandlarni jismonan sog‘lom va ma‘nan yetuk qilib

⁷⁸ «O‘zbekistonning umidli yoshlari» mavzusidagi 3-son Respublika ilmiy talabalar, magistrilar yosh tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun onlayn konferensiyasi [Toshkent; 2021] 39-b.

⁷⁹ Sh.M.Mirziyoyev / Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik / Toshkent, «Nashriyot uyi tasvir» 2021 / 11-b.

⁸⁰ R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov / Umumiy pedagogika / Toshkent «Fan va texnologiya» 2018 / 314-b.

⁸¹ Ilm-fan va ta‘limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to‘plami 27- aprel 2020- yil / 631-b.

tarbiyalashga olib keladi. Bu holat oilada yashash sharoitini yaxshilashga imkoniyat tug‘diradi va bu oiladan bizning bugunimmiz, ertammiz va qolaversa kelajagimiz bo‘lgan yoshlar tarbiyalanadi⁸².

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki: o‘yin – bola hayotining ajralmas qismi bo‘lib, bolani oilada jismoniy jihatdan tarbiyalash u tug‘ilgan kundan boshlanadi. Harakatli o‘yinlar orqali beriladigan jismoniy tarbiya bolaning jismoniy kuchi va kishi psixik faoliyatining moddiy negizi bo‘lgan markaziy nerv tizimini o‘stirish va taraqqiy ettirish bilan birga, uning aqliy qobiliyatlarini to‘g‘ri o‘shishiga ham yordam beradi⁸³. Bolalarimizning dunyosiga bolalarcha nazar bilan boqib, ularga dunyodagi barcha narsani jozibali holatda, kelajagimizning ishonch tog‘lari ekanliklarini tushuntiraylik. Ularga ezgulik va yaxshilikning mukofoti, albatta, bir kun go‘zal holatda berilishini onglaridan chiqmas qilib singdiraylik. Ularga buyuk insonlar kabi muomala qilaylik. Ularga ruhiyatlari tetik, aqlan zukko, jismonan sog‘lom, har tomonlama yetuk shaxslar bo‘lib voyaga yetishlari uchun zarur zamin yarataylik. Hayotga bo‘lgan intilishi, qiziqishini turfa xil o‘yinlar orqali oshiraylik. Bu barchamiz uchun farz amal bo‘lishi kerak. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov aytganlaridek, “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma‘naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi⁸⁴. Zero, farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘ladi, qudratli yurtning farzandlari sog‘lom bo‘ladi⁸⁵, albatta.

Mavzuni kengroq o‘rgangan holda tadqiq-tahlil qilib, uni yoritib berishda o‘zining ko‘p yillik hayotiy tajribalari bilan o‘rtoqlashib yaqindan yordam bergan ustozlarimiz – Qo‘qon universiteti katta o‘qituvchisi *Odil Olimovich Parpiyev* hamda psixologiya fani o‘qituvchisi *Hamidullayev Faxriddin Shamsiddin o‘g‘liga* chuqur minnatdorchiligimni izhor qilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

- 1) Sh.M.Mirziyoyev / Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz / Toshkent, «O‘zbekiston» 2017.
- 2) Sh.M.Mirziyoyev / Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz / Toshkent, «O‘zbekiston» 2017.
- 3) Sh.M.Mirziyoyev / Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak / Toshkent, «O‘zbekiston» 2017.
- 4) Sh.M.Mirziyoyev / Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik / Toshkent, «Tasvir» nashriyot uyi - 2021.

⁸² «O‘zbekistonning umidli yoshlari» mavzusidagi 3-son Respublika ilmiy talabalar, magistrilar yosh tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun onlayn konferensiyasi [Toshkent; 2021] 245-b.

⁸³ R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov / Umumiy pedagogika / Toshkent «Fan va texnologiya» 2018 / 315-b.

⁸⁴ Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch, I.Karimov, Toshkent “Ma‘naviyat” 2008

⁸⁵ R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov / Umumiy pedagogika / Toshkent «Fan va texnologiya» 2018 / 313-b.

- 5) Sh.M.Mirziyoyev / Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir / Toshkent, «Tasvir» nashriyot uyi - 2021.
- 6) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 03.02.2022-yil F-22-sonli farmoyishi.
- 7) I.A.Karimov / Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch / Toshkent «Ma’naviyat» 2008.
- 8) I.A.Karimov / «Sog‘lom avlod tarbiyasi barchamizning muqaddas insoniy burchimiz». / Toshkent, «Tafakkur» gazetasi, 2000.
- 9) I.A.Karimov / «Barkamol avlod orzusi» / Toshkent-1997.
- 10) S.Qurbonov / Didaktik o‘yinlar / metodik qo‘llanma / Urganch, 2011.
- 11) R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov / Umumiy pedagogika / Toshkent «Fan va texnologiya» 2018.
- 12) I.V.Grosheva, G.E.Djanpeisova, U.T.Mikailova, M.A.Ismailova, D.A.Kenjabayeva / O‘yin orqali ta’lim olish / o‘quv qo‘llanma / Toshkent, 2020.
- 13) K.Hashimov, S.Nishonova / Pedagogika tarixi / Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti / Toshkent, 2005.
- 14) Pedagogika. Izohli lug‘at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O‘.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: “Innovatsiya ziyo» nashriyoti, 2020. – 283 bet.
- 15) Y.M. Karimova / Ijtimoiy psixologiya / Darslik, Toshkent, “Fan va texnologiya». 2016.
- 16) Z. Nishanova, G. Alimova / Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi / O‘quv qo‘llanma / Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
- 17) F.N.Alimova, N.A.Asqarova «Inqirozli vaziyatlarda psixologik yordam» metodik qo‘llanma, Toshkent 2014.
- 18) Z.T.Nishanova, N.G‘. Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova «Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya» T.: 2018.
- 19) Z.Nishanova, G.Alimova «Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi» T.: 2006.
- 20) E.G‘oziev. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
- 21) Рабочая книга школьного психолога. М.: 1991.
- 22) Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova / Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya / «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti» Toshkent-2018.
- 23) N.N.Azizxo‘jayeva / Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahurat / O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, Toshkent-2006.
- 24) H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov / Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / Toshkent «Iqtisod-moliya» 2009.
- 25) Tolipov O‘tkir, Ro‘ziyeva Dilnoza / Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (O‘quv qo‘llanma) / Toshkent: «INNOVATSIYA-ZIYO», 2019.
- 26) Ziyayev Adhanjon Nisolmuxammatovich / Umumiy pedagogika (Pedagogik mahorat), o‘quv qo‘llanma / Qo‘qon, 2020.

- 27) G. Shodmonova, N. D. Ibragimova R.Hojimuxamedova / «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» (Metodik qo‘llanma) / Toshkent, 2011.
- 28) G.Husanova / Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi fanidan ma’ruza matnlari / Namangan, 2010.
- 29) A.A.Abduqodirov, R.Ishmuxamedov, A.Pardayev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2018.
- 30) R.Ishmuhammedov., M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: «Nihol nashryoti, 2013
- 31) O.U.Avlayev, S.N. Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva / “Ta’lim metodlari» o‘quv-uslubiy qo‘llanma / «Navro‘z» nashriyoti, Toshkent, 2017.
- 32) T.Ismoilov / Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi / o‘quv-uslubiy majmua / Namangan, 2021.
- 33) S.Fuzailov, M.Xudoyberganova, Sh.Yo‘ldosheva / Ona tili / 3-sinf o‘quvchilari uchun darslik / Toshkent: «O‘qituvchi» NMIU, 2019.
- 34) Mahkamjonov K., Xo‘jayev F. / Jismoniy tarbiya / 2-sinf o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma / Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2018.
- 35) K. T. Suyarov, Z. Y. Tillayeva, Z. B. Sangirova, M. K. Yuldasheva, M. M. Avezov, M. X. Baymuratova, D. S. Azamatova, M. T. Umaraliyeva, U. E. Alimuhamedova, S. G‘. Xasanova, D. T. Hasanova, D. Q. Turdiyeva, (N. V. Yusupova, G. A. Pahramova, Sh. M. Ganiyeva) / Tabiiy fanlar / 1-2-sinf o‘quvchilari uchun darslik / Toshkent, Respublika ta’lim markazi, 2021.
- 36) N.U.Bikbayeva / Matematika / 4-sinf o‘quvchilari uchun darslik / Toshkent: «O‘qituvchi» NMIU, 2020.
- 37) Чатфилд Том - Критическое мышление. Анализируй, сомневайся, формируй своё мнение - (Личная эффективность) - 2019.
- 38) «Ta’lim hamma uchun» Dasturining Milliy rejasi. - Toshkent, “Arnaprint»-2003.
- 39) Tiwari, S. R. (2008). Teaching of English. New Delhi: S.B. Nangia A P H Publishing Corporation.
- 40) “Xalq so‘zi» gazetasining 2020-yil 31-oktabr 230 (7732)-soni.
- 41) Молодой учёный, (Международный научный журнал) № 9 (143) / 2017, г. Казан.
- 42) Toshkent Davlat Pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali / 2020, 10-son.
- 43) «O‘zbekistonning umidli yoshlari» mavzusidagi 3-son Respublika ilmiy talabalar, magistrilar yosh tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun onlayn konferensiyasi [Toshkent; 2021]
- 44) “O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar: Davriy anjumanlar:” mavzusidagi respublika 40-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to‘plami, 31 may 2022 yil. - Toshkent: «Tadqiqot», 2022. - 51 b.

45) M.I.Badalov, H.Najmiddinova. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda matematik bilimlarni shakllantirishda intellektual o‘yinlarning ahamiyati // «Amaliy matematika va informasion texnologiyalarning dolzarb muammolari - al-Xorazmiy 2014»: Xalqaro ilmiy konferensiya.- Samarqand: SamDU, 15-17 sentyabr’, 2014 yil.

46) Ilm-fan va ta’limning rivojlanish istiqbollari birinchi konferensiyasi to‘plami 27-aprel 2020- yil.

47) A.A. Imomov, J.O. Siddiqova «Ota-ona nazorati dasturini sog‘lom turmush tarziga hamohang etish orqali takomillashtirish».

48) Д.Б. Эльконин / Психология игры / Москва-1999.

49) <https://kopilkaurokov.ru/>

50) <https://peskiadmin.ru/>

51) <https://bt-jurnal.uz/>

52) <https://lex.uz/>

53) <https://uchitelya.com/angliyskiy-yazyk/201740-didakticheskie-igry-na-urokah-inostrannogo-yazyka.html>

54) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi rasmiy sayti - www.uzedu.uz.

55) Ta’lim portali - www.ziyonet.uz